

## **XALQARO VA MINTAQAVIY PATENT TASHKILOTLARINING QIYOSIY TAHLILI: FUNKSIONALLIGI, KO'LAMI VA SAMARADORLIGI**

**Abduraximov Shoxrux Shuxratjon o'g'li**

*Toshkent davlat yuridik universiteti 70420108-Biznes huquqi magistranti*

[sh.sh.abduraximov@gmail.com](mailto:sh.sh.abduraximov@gmail.com)

Xalqaro va mintaqaviy patent tashkilotlari patentlarning huquqiy muhofazasi, patent ekspertiza jarayonlarini osonlashtirishda, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish va ularning ijro etilishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqot ishi Yevropa patent idorasi (EPO), Yevroosiyo patent tashkiloti (EAPO), Afrika mintaqaviy intellektual mulk tashkiloti (ARIPO) va Fors ko'rfazi hamkorlik Kengashi Patent idorasi (GCCPO) kabi taniqli tashkilotlar faoliyatini qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan. Ularning funksiyalari, ko'lami va samaradorligini o'rganib, biz ushbu tashkilotlarning o'xshashliklari, farqlari va o'ziga xos xususiyatlari haqida qimmatli tushunchalarni berishga harakat qilamiz. Tahlilimiz talabnama berish va ekspertiza jarayonlari, patentga layoqatilik talablari, til va tarjima, shuningdek, har bir tashkilot duch keladigan muammolar va kelajakdagi o'zgarishlarni qamrab oladi. Ushbu tadqiqot patent himoyasi va uning ijrosi borasida ikkilanayotgan ixtirochilar, korxonalar va siyosatchilar uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Dastlab, ushbu tashkilotlarni e'tirof etib o'tishimiz lozim. Hozirda butun dunyoda intellektual mulk himoyasi va sanoat mulkini patentlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi bir qancha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar mayjud. Xalqaro tashkilotlar qatorida eng yuqori mavqega ega tashkilot Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) hisoblanadi. Mintaqaviy patent tashkilotlari qatorida Yevropa patent idorasi (EPO), Yevroosiyo patent tashkiloti (EAPO), Afrika mintaqaviy intellektual mulk tashkiloti (ARIPO) va Fors ko'rfazi hamkorlik Kengashi Patent idorasi (GCCPO) kabilarni sanab o'tishimiz mumkin. Bu tashkilotlarning butunjahon patent tizimida tutgan o'rni beqiyosdir [1]. Endi ushbu tashkilotlarning alohida jihatlari va farqlariga to'xtalamiz.

**Funksiya va yurisdiksiya.** Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) intellektual mulk (IP) xizmatlari, siyosati va hamkorligi uchun global forum bo'lib xizmat qiladi. Uning asosiy vazifasi butun dunyo bo'y lab IP huquqlarini targ'ib qilish va himoya qilishdir. WIPO Patent kooperatsiyasi shartnomasi (PCT) tizimi orqali xalqaro patent talabnomalarini osonlashtirdi va talabnama beruvchilarga bitta ariza bilan bir nechta mamlakatlarda ixtirosi uchun huquqiy himoya olishga imkon berdi [8]. Yevropa patent idorasi (EPO) Yevropada patentga talabnomalar va grantlar berish bo'yicha Markaziy tashkilot vazifasini bajaradi. Bu patentni himoya qilish uchun soddalashtirilgan jarayonni tatbiq etgan, unga a'zo davlatlarda patentlarning bir xilda amal qilishi va ularning sifatini ta'minlaydi. Yevroosiyo patent tashkiloti (EAPO) Yevroosiyo mamlakatlari, Sobiq sovet ittifoqiga a'zo davlatlar (hozirda O'zbekiston va Ukrainadan boshqa MDH davlatlarining bari a'zo) uchun yagona patent tizimini taqdim etgan tashkilotdir. U o'z yurisdiksiyasida sanoat mulki obkeytlari uchun patent olish jarayonini soddalashtirish va uyg'unlashtirishni amalga oshirgan. Afrika mintaqaviy intellektual mulk

tashkiloti (ARIPO) Afrika mamlakatlari uchun mintaqaviy patent tizimini taklif etgan va IP qonunlarini uyg‘unlashtirishga yordam bergan birinchi tashkilotdir. ARIPO tufayli unga a’zo davlatlarda patent olishda lozim bo’lgan hujjatlar va patent olish osonlashtiriligan, iqtisodiy jihatdan samarali va soddalashtirilgan jarayon ta’minlangan. Fors ko’rfazi hamkorlik Kengashining Patent idorasi (GCCPO) Fors ko’rfazi hamkorlik Kengashiga A’zo davlatlar, jumladan Bahrayn, Quvayt, Ummon, Qatar, Saudiya Arabiston va Birlashgan Arab Amirliklari uchun patent beruvchi organ bo’lib xizmat qiladi. Uning asosiy faoliyati Ko’rfaz mintaqasida IP huquqlarini targ‘ib qilish va himoya qilish, innovatsiyalar va iqtisodiy o’sishni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan.

**Huquqiy asoslar.** Jahan intellektual mulk tashkiloti (WIPO), Yevropa patent idorasi (EPO), Yevroosiyo patent tashkiloti (EAPO), Afrika mintaqaviy intellektual mulk tashkiloti (ARIPO) va Fors ko’rfazi hamkorlik Kengashi Patent idorasi (GCCPO) faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asoslar ularning faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. WIPO turli xil xalqaro shartnomalar va bitimlar, shu jumladan xalqaro IP-ni himoya qilish va hamkorlikning huquqiy asoslarini belgilaydigan WIPO Konvensiyasi asosida ishlaydi. EPO shartnomaga tuzgan davlatlarda patent tizimini boshqaradigan Yevropa Patent Konvensiyasi (EPC) doirasida ishlaydi. EAPO esa Yevroosiyo Patent Konvensiyasi (EAPC), Yevroosiyo patent tizimi uchun huquqiy asosni ta’minlaydigan ko’p tomonlama shartnomalarga tayanadi. ARIPO Afrika mamlakatlari o’rtasida patentni himoya qilish va hamkorlikning huquqiy asoslarini belgilaydigan “Harare protokoli” asosida faoliyat ko’rsatadi [9]. GCCPO GCC Patent Qonuni va Fors ko’rfazi hamkorlik Kengashi patent idorasi Ko’rfaz mintaqasida patentni himoya qilishning huquqiy asoslarini belgilab bergan Reglament va boshqa qoidalar asosida ish yuritadi [6]. Ushbu huquqiy asoslar vakolat doirasini, patent berish va ekspertiza o’tkazish tartibini, patentga layoqatlilik talablarini va ushbu tashkilotlarning yurisdiktsiyalaridagi ijro mexanizmlarini belgilaydi.

**Talabnomma topshirish va ekspertiza jarayonlari.** WIPO, EPO, EAPO, ARIPO va GCCPO patentlarga talabnommalarni topshirish va ularni ekspertizadan o’tkazish jarayonlari bir-biridan sezilarli farq qiladi. WIPO tashkilotiga talabnomma berilganda, talabnomma beruvchilar bitta xalqaro patent talabnomasini topshiradi, keyinchalik ular ekspertiza uchun WIPOGa a’zo mamlakatlarda milliy yoki mintaqaviy bosqichga o’tkaziladi. Boshqa tomonidan, EPO markazlashtirilgan imtihon jarayonini amalga oshiradi, bunda talabgorlar EPO tomonidan ko’rib chiqilagan va beriladigan Yevropa patentiga ariza berishadi va berilgandan so’ng, talabnomma beruvchining patenti o’zi talabnomamada ko’rsatgan (EPOGa a’zo davlatlardan biri yoki hammasi) Yevropa mamlakatlarida muhofaza qilinadi va ular tomonidan tan olinadi [10]. EAPO ham xuddi shunday tartibda ishlaydi. U taqdim etgan patent Yevroosiyo mintaqasidagi (EAPOGa a’zo davlatlarda) tan olinadi. Ariza berilganda arizada talabgor biror bir davlatni yoki bir necht davlatlarni tanlashi mumkin. Ushbu talabnomma asosida berilgan patent aynan ko’rsatilgan davlatlarda amal qiladi [11]. ARIPO esa markazlashtirilmagan yondashuvga amal qiladi. Talabgorlar a’zo mamlakatlarning milliy patent idoralarida ekspertizadan o’tadigan yagona mintaqaviy patentga ariza topshiradilar. Patent ekspertizasi mahalliy patent ofisida o’tkaziladi. Uni amalga oshiruvchi alohida markaziy ofis bu mintaqaviy

tashkilot doirasida tuzilmagan [9]. GCCPOda, aksincha, barcha talabnomalar GCC patent idorasiga topshiriladi va ekspertiza ham shu idora tomonidan amalga oshiriladi [6].

Bundan tashqari, talabnomada ixtironing tavsifi bo'yicha ham farqlar mayjud. Masalan, EPO talabnomada ixtiro tavsiflanishining "nemis sxemasi" dan foydalanadi. EPO "nemis sxemasi" ning o'ziga xos xususiyati bo'lgan "muammoni hal qilish" yondashuviga amal qiladi [2]. Ushbu yondashuvga ko'ra, patent talabnomasida ixtiro hal qiladigan texnik muammoning aniq bayoni, shuningdek, yechimga hissa qo'shadigan texnik xususiyatlari aniq ko'rsatilishi lozim. Muammoni hal qilish yondashuvi EPOda ekspertiza jarayonida ixtironing ixtirochilik bosqichini baholash uchun qo'llaniladi.

Aksincha, boshqa WIPO, EAPO, ARIPO, GCCPO kabi tashkilotlar ixtiro formulasida "nemis sxemasi" dan foydalanishni maxsus talab qilmaydi. Ushbu tashkilotlar patentga talabnomalar uchun o'zlarining ko'rsatmalari va talablariga ega bo'lishsa-da, ular odatda o'ziga xos formulali yondashuvga emas, balki da'vo qilingan ixtironing yangiligi, ixtirochilik bosqichi va sanoat qo'llanilishini baholashga qaratilganligi bilan farqlanadi.

**Til va tarjima.** WIPO, EPO, EAPO, ARIPO va GCCPO ish yuritish va talabnomona tili bo'yicha farq qiladi. Albatta, bu ularning yurisdiksiyalaridagi lingvistik xilma-xillik bilan bog'liq. Shunday bo'lsa-da, ularning aksariyati rasmiy tilga tarjimalari bilan ingliz tilida ham talabnomalarni qabul qiladi. WIPO bir nechta tillarda patent talabnomalarini qabul qiladi va talabgorlar WIPO tomonidan taqdim etilgan o'nta nashr tillaridan birini, shu jumladan ingliz, fransuz, ispan, nemis va boshqalarni tanlashlari mumkin. PCT jarayonining xalqaro qidiruv organlari (ISA) va xalqaro dastlabki tekshirish organlari (IPEAS) odatda hujjatlarni ariza beruvchi tomonidan tanlangan nashr tilida yoki xalqaro hokimiyat tilida qabul qiladi. EPO asosan uchta rasmiy tilda ishlaydi: ingliz, fransuz va nemis [10]. Biroq, EPO ba'zi hujjatlar uchun tarjima xizmatlarini taqdim etadi va ma'lum shartlarga rioya qilgan holda boshqa tillarda patentga talabnomalarni topshirish imkoniyatini taqdim etadi. EAPO ekspertizani a'zo davlatlarning rasmiy tillarida, shu jumladan rus va ingliz tillarida o'tkazadi hamda EPOdekk patentga ariza berish jarayoni bilan bog'liq hujjatlar uchun tarjima xizmatlarini taqdim etadi. Lekin uning asosiy tili rus tilidir [11]. ARIPO patentga talabnomalarini ingliz, fransuz yoki portugal tillarida topshirishga imkon beradi va ba'zi hujjatlar uchungina tarjima xizmatlarini taqdim etadi. GCCPO patent talabnomalarini arab tilida qabul qiladi va ekspertizaning sifatli o'tishi uchungina tarjima xizmatlarini taqdim etishi mumkin. Barcha tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan tarjima xizmatlari qo'shimcha haq evaziga amalga oshiriladi. Lekin uning afzalligi patent talabnomasini siz o'zingiz tushungan tilde topshira olishingizdadir.

**Patentning amal qilishi va ijro etilishi.** WIPO to'g'ridan-to'g'ri patent bermaydi, lekin patent hamkorlik shartnomasi (PCT) tizimi orqali patentlarning xalqaro himoyasini ta'minlaydi. Patentlarning amal qilish muddati va bajarilishi PCTga a'zo har bir mamlakat ichidagi milliy qonunlar bilan tartibga solinadi. EPO belgilangan a'zo davlatlarda amal qiladigan Yevropa patentlarini beradi. Yevropa patentlari hamda EAPO patentlari, odatda, 20 yil muddatga beriladi. ARIPO milliy qonunlar va qoidalarga rioya qilgan holda a'zo davlatlarda amalga oshiriladigan patentlarni beradi. Unda ham patent muddati 20 yil bo'lishiga

qarmasdan, Lesoto, Malavi, Namibiya, Tanzaniya, Uganda va Zambiya afrika davlatlarida bu muddat qisqaroq [7]. GCCPO patentining amal qilish muddati ham 20 yilni tashkil etadi [6].

**Patentga layoqatlilik talablari.** Barcha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar patentga layoqatlilik talablarini deyarli bir xil begilaganlar. Bunga 1883-yilgi Parij Konvensiyasi juda katta ta'sir ko'rsatgan. Bu talablar patentlanayotgan ixtironing yangiligi, ixtirochilik qadam (ya'ni texnik taraqqiyot darajasidan hali noma'lumligi) va sanoat qo'llanilishidir. Bundan tashqari, har bir patent tashkiloti qo'shimcha ahamiyatli jihatlarni ham inobatga oladi. Jumladan, EPO uchun ixtironing muayyan "muammoni hal qilish" muhim, bu yerda da'vo qilingan ixtiro texnik muammoning texnik yechimini taqdim etishi shart. Aksincha holda unga patent berish rad etilishi mumkin. ARIPO esa da'vo qilingan ixtironing kamida bitta ARIPOga a'zo davlatda sanoatda qo'llanilishiga qodirligini talab qiladi [9]. Chunki bu davlatlarda sanoat sohasida rivojlanish juda muhim sanaladi.

**Tezlashtirilgan ekspertiza dasturlari.** Bu shuni anglatadiki, agar talabnomalarini beruvchi o'zining ixtirosini tezroq patentlashni xohlasa, qo'shimcha haq evaziga bunday imkoniyatni taklif etuvchi maxsus dasturlar bor. Ba'zi dasturlar, hatto, bepul taqdim etiladi. Masalan, Green Channel (Yashil kanal) dasturi Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa bir qator mamlakatlarda ekologik foydali yoki toza texnologiyalar bilan bog'liq ba'zi patent dasturlari uchun tezkor ekspertizani ta'minlashni ko'zda tutadi [4]. Ushbu dasturlar ekologik jihatdan toza va uni ifloslanishdan himoya qilishga qaratilgan innovatsiyalarni rag'batlantirishni maqsad qilgan. Shuningdek, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar tomonidan ham bunday dasturlar taqdim etiladi. Masalan, EPO o'zining "PACE" dasturi (Evropa Patent talabnomalarini tezlashtirilgan ta'qib qilish dasturi) orqali tezlashtirilgan ekspertiza o'tkazish imkoniyatini taqdim etadi. PACE talabnomalarini beruvchilarga asosli so'rov yuborish va investitsiya yoki litsenziyalash imkoniyatlarini ta'minlash uchun patentni tezkor berish zarurati kabi qonuniy manfaatlarni namoyish etish orqali tezlashtirilgan imtihonni talab qilishga imkon beradi [3].

EAPO PPH (Patent prokuraturasi avtomagistrali) dasturi orqali tezlashtirilgan ekspertizani taqdim etadi. Ariza beruvchilar bunday dasturdan foydalanishlari uchun unga a'zo davlatlarning patent idorasi, shu jumladan EPO va boshqa milliy patent idoralari tomonidan o'tkazilgan ijobjiy imtihon natijalarini taqdim etishlari lozim. Shundagina ularga PPH dasturi taqdim etiladi [3].

ARIPO "Tezkor grant dasturi" deb nomlanuvchi tezlashtirilgan ekspertiza dasturini taklif etadi. Ushbu dastur talabnomalarini beruvchilarga qo'shimcha to'lovlarini to'lash va tezlashtirilgan ekspertizani asoslovchi sabablarni taqdim etish orqali tezlashtirilgan imtihonni talab qilishga imkon beradi, masalan, intellektual mulk huquqlarining buzilishi yoki potensial tijoratlashtirish imkoniyatlarining tushib ketish ehtimoli kabi.

**Ahamiyati.** Har bir xalqaro va mintaqaviy tashkilot butun jahondagi intellektual mulk huquqlari uchun juda ham katta ahamiyatga ega. Chunki WIPO, EPO, EAPO, ARIPO va GCCPO kabi mintaqaviy patent tashkilotlari o'zlarining mintaqalaridagi turli xil intellektual mulk huquqini himoyalash ehtiyojlari va integratsiya tashabbuslarini aks ettiruvchi xususiyatlarini namoyish etmoqdalar. WIPO tufayli deyarli butun dunyoda, EPO, EAPO,

ARIPO, GCCPO sababli esa mintaqaviy miqysda integratsiya jarayoni sezilmoqda. Bu avvalo, iqtisodiy integratsiya va sanoat itegratsiyasining natijasidir [2].

Bundan tashqari, bu tashkilotlar tifayli mintaqalararo patent himoyasi, patent ekspertizasi, patentga layoqatlilik shartlari, uning muhofaza muddati va boshqa ko'plab jihatlarni tartibga solgan milliy va mintaqaviy hujjatlar uyg'unlashib, bir xillashib bormoqda. Shuning uchun ham biz yuqorida tahlil qilgan patentlash jarayonlarining deyarli barchasida o'xshashlikni ko'rishimiz mumkin.

**Kelajakdagi muammolar.** WIPO, EPO, EAPO, ARIPO va GCCPO turli xil muammolarga duch kelmoqdalar va ularni hal qilish uchun kelajakdagi ishlanmalarni faol ravishda izlamoqdalar. WIPO turli yurisdiksiyalarda patent qonunlari va protseduralarini uyg'unlashtirish, samarali patent ekspertizasini ta'minlash va texnologik yutuqlar bilan hammasas bo'lish bilan bog'liq muammolarga duch keladi. EPO mintaqaviy patent idorasi sifatida ekspertiza jarayonida yuqori patent sifati va samaradorligini saqlash o'rtasida muvozanatni saqlashda qiyalmoqda. EAPO esa a'zo davlatlarning ishtiropi, patent qonunlarini uyg'unlashtirish va Yevroosiyo patent tizimi to'g'risida xabardorlikni oshirish bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda. ARIPO cheklangan resurslar, salohiyatni oshirish va a'zo davlatlarning turli ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq muammolar bilan band. U ekspertiza imkoniyatlarini mustahkamlash, patent ekspertizasi sifatini oshirish va intellektual mulk masalalarida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish ustida ishlamoqda. GCCPO o'zining patent tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va Ko'rfaz mintaqasida innovatsiyalarni rivojlantirish uchun doimiy ravishda ishlamoqda. Yaqin kelajakda patent tizimi so'nggi yigirma yil ichida duch kelgan muammolarga qaraganda ko'proq qiyinchiliklarga duch keladi, jumladan global lashuvning kuchayishi, internetdan diffuziya vositasi sifatida foydalanish va xizmatlarda kengaytirilgan innovatsiyalar. Patent tizimini ushbu yangi muammolarni hal qilish uchun tayyorlash uchun innovatsion va texnologiya tarqalishini rag'batlantirish rolini bajarishda davom etishi uchun yaxshi ma'lumotga ega va ko'proq global siyosat talab etiladi [5].

**Natijalar.** Birinchidan, ushbu tashkilotlar turli yurisdiksiyalarda intellektual mulk huquqlari targ'boti va himoya qilinishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. WIPO xalqaro patentlarni topshirish va himoya qilishni osonlashtiradigan hamkorlik uchun "global platforma" bo'lib xizmat qiladi. Boshqa tomonidan, EPO, EAPO, ARIPO va GCCPO mintaqaviy integratsiya tashabbuslariga e'tibor qaratadi va o'z mintaqalarida patentlash va ekspertiza o'tkazish uchun markazlashtirilgan tizimlarni taqdim etadi.

Ikkinchidan, ushbu tashkilotlarning huquqiy asoslari bir-biridan farq qiladi, bu ularning yurisdiktsiyalarining noyob talablari va huquqiy tizimlarini aks ettiradi. WIPO Patent kooperatsiya shartnomasi (PCT) kabi xalqaro shartnomalar asosida ishlaydi, EPO, EAPO, ARIPO va GCCPO esa o'zlarining mintaqaviy patent konvensiyalari yoki shartnomalari asosida ishlaydi. Ushbu huquqiy asoslar patentni topshirish va ekspertiza qilish jarayonlarini, patentga layoqatlilik mezonlarini, til va tarjima talablarini, shuningdek patentning amal qilish muddati va ijro mexanizmlarini shakllantiradi.

Uchinchidan, patent topshirish va ekspertiza jarayonlari ushbu tashkilotlar orasida farq qiladi. WIPOning PCT tizimi abituriyentlarga bitta xalqaro patent arizasini topshirishga imkon beradi, EPO, EAPO, ARIPO va GCCPO esa mintaqaviy patent hujjatlari uchun markazlashtirilgan tizimlarni taklif qiladi. Har bir tashkilot o‘z yurisdiksiyalarining o‘ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirilgan o‘z imtihon protseduralari, muddatlari va to‘lov tuzilmalariga ega.

Bundan tashqari, patentga layoqatlilik talablari, imtihon mezonlari va mintaqaviy o‘ziga xosliklar bo‘yicha farqlar mayjud. Har bir tashkilot patentga layoqatlilikni aniqlashning o‘ziga xos mezonlariga ega, masalan, yangilik, ixtirochilik bosqichi va sanoat qo‘llanilishi kabi.

Xulosa qilib, xalqaro va mintaqaviy patent tashkilotlarini, shu jumladan WIPO, EPO, EAPO, ARIPO, GCCPO turli yurisdiksiyalarda patent berish, ekspertiza o‘tkazish va sanoat mulkini himoya qilish tizimlaridir. Ushbu tashkilotlar alohida funksiyalarini bajaradilar va o‘zlarining mintaqalaridagi turli xil ehtiyojlar va ustuvorliklarni aks ettiruvchi noyob huquqiy asoslarda faoliyat yuritadilar. Lekin shunga qaramay, so‘nggi yillarda xalqaro patent tizimida uyg‘unlashish, bir xilashishni kuzatishimiz mumkin. Biroq baribir har bir mintaqqa sharoitidan kelib chiqib, barcha jihatlar umumiy ko‘rinishga kelmasligi aniq. Chunki nisbatan rivojlangan davlatlar ixtiroga nisbatan qattiq talablar qo‘ysa, endi rivojlanayotgan davlatlar esa ixtirolarning tezroq sanoatlashishidan manfaatdor. Kelajakdagi o‘zgarishlar hamkorlikni kuchaytirish, jarayonlarni soddalashtirish, patent ekspertizasi imkoniyatlarini yaxshilash va innovatsiyalarni rivojlanirishga qaratilishi kutilmoqda.

## **ADABIYOTLAR:**

1. Curesky, Karen M. (1989). International patent harmonization through W.I.P.O.: Ananalysis of the U.S. proposal to adopt a "first-to-file" patent system. *Law and Policy in International Business*. 21(2): 289-308
2. Yuldashov A. (2020). Intellektual mulk bo‘yicha milliy strategiyalarning ahamiyati va butunjahon intellektual mulk tashkilotining bu borada tutgan o‘rni. Yurist axborotnomasi. - T. 1. - №. 2. - S. 53-59.
3. WIPO. (2023). *PCT-Patent Prosecution Highway Program (PCT-PPH and Global PPH)*. World Intellektual Property Organization. Article.

[https://www.wipo.int/pct/en/filing/pct\\_pph.html](https://www.wipo.int/pct/en/filing/pct_pph.html)

4. Imogen Percival and Robin Newman (2022). *Intellektual Property Office Green Channel accelerates environment-friendly patents*. Government Science & Engineering. <https://governmentscienceandengineering.blog.gov.uk/2022/07/18/intellektual-property-office-green-channel-accelerates-environment-friendly-patents/>

5. Organisation For Economic Co-Operation And Development. *Patents And Innovation: Trends And Policy Challenges*. URL:  
<https://www.oecd.org/science/inno/24508541.pdf>

6. WIPO. *Patent Regulation of the Cooperation Council for the Arab States of the Gulf*. URL:

[https://www.wipo.int/export/sites/www/scp/en/meetings/session\\_14/ips/gcc\\_reg\\_2.pdf](https://www.wipo.int/export/sites/www/scp/en/meetings/session_14/ips/gcc_reg_2.pdf)

7. ARIPO. *Regional patents in Africa*. URL:

<https://inventa.com/en/convention/aripo/patents>

8. WIPO. *Inside WIPO*. URL: <https://www.wipo.int/about-wipo/en/>

9. WIPO. *Harare Protocol on Patents and Industrial Designs Within the Framework of the African Regional Industrial Property Organization (ARIPO)*. URL: <https://www.wipo.int/wipolex/en/treaties/details/204>

10. EPO. *European Patent Convention*. URL:

<https://new.epo.org/en/legal/epc/2020/index.html>

11. EAPO. *Eusoasian Patent Convention*. URL:

[https://www.eapo.org/en/documents/norm/convention\\_txt.html](https://www.eapo.org/en/documents/norm/convention_txt.html)